



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

**TOSHKENT SHAHRIDA
MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARI
FAOLIYATI
2023- yilda**



Madaniyat bu - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig'indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san'at, fan va manaviy tizimlarni o'z ichiga oladi.

Madaniyat - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma'lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda namoyon bo'ladi.

San'at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'la boshlagan.


San'at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a'zolarini ma'lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san'at go'zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g'oyasiga aylangan.

Teatr san'ati azaldan insoniyatning ma'naviy hayotida o'z o'rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo'lib, shundan keyingina jamoaviy san'at turiga aylangan. Spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, bugungi kunda boshqacha qilib aytganda, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlarining mahsulidir. Demak, sahna san'atkorning muttasil ijodkorligini ko'rsatadi, aktyor zamonaviy san'atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog'liq bo'lgan nimadir qo'shadi yoki olib tashlaydi.


TOSHKENT SHAHRIDAGI MUZEYLAR

Toshkent shahrida 2023- yilda jami muzeylar soni **31** tani tashkil etgan. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, **1 952,2** ming kishidan iborat bo‘lib, ulardan o‘quvchi va talabalar ulushi **44,5 %** ni tashkil etgan.


Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan muzeylar soni,
(tegishli yil uchun birlikda)



Muzeylar sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi,
(2023- yil uchun, birlikda)



Muzeyga tashrif buyuruvchilar sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi ,
(2023- yil uchun, ming kishi)




Bugungi kunda shahrimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo'lib, 2023- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni **1 143,1** mingtani tashkil etgan. Muzey eksponatlarining **8,5** mingtasi rassomlik, **17,5** mingtasi grafika, **1,8** mingtasi haykaltaroshlik, **22,5** mingtasi amaliy san'at, **121,1** mingtasi numizmatika, **99,0** mingtasi arxeologiya buyumlari, **108,5** mingtasi suratlar, **115,3** mingtasi hujjatlar, **22,5** mingtasi maishiy va etnografik buyumlar va **235,0** mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.

Muzeylar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari,
2023- yil uchun, birlik

Ekskursiyalar soni	46 750
Ma'ruzalar soni	19 663
Ko'rgazmalar soni	345

Muzeylardagi asosiy fond eksponatlari soni,
2023- yil uchun, ming birlik




TOSHKENT SHAHRIDAGI TEATRLAR

2023-yilda shahrimizda jami teatrlar soni 14 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan solishtirilganda teatrlar soni 4 taga kamayligini ko'rsatadi. Teatrlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni 2 953 tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 577,5 ming nafarni tashkil etgan.

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan teatrlar soni

(tegishli yil uchun, birlik)



Tumanlar kesimida

(2023- yil uchun, birlik)

Mirzo Ulug'bek 2

Mirobod 3

Shayhontoxur 6

Yakkasaroy 1

Chilonzor 2



Teatrlarning janrlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



TOSHKENT SHAHRIDAGI TEATRLAR


Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni

(tegishli yil uchun, ming kishi)


2023-yilda jami teatrlar soni 14tani tashkil etib, ushbu teatrlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) 2 953 tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 577,5 ming nafarni tashkil etgan.

Teatrlarda namoyish etilgan spektakllar soni

(tegishli yil uchun, birlik)



Faoliyat olib boriladigan tillar bo'yicha teatrlar soni, (2023- yil, %.)



Teatrlarga tashrif buyurgan tomoshabinlar sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2023- yil uchun, ming kishi)




TOSHKENT SHAHRIDA KONSERT TASHKILOTLARI VA SIRK

Shahrimizda 2023- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 50 ta bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8 taga oshgan. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2023- yilda 1 442 tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami 1 123,8 ming nafarni tashkil etdi.

2023- yilda konsert tashkilotlari faoliyati


Konsert tashkilotlari soni
(birlik)



Konsertlar soni
(birlik)




Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni
(ming kishi)



2023- yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlari, birlik



Konsert tashkilotlar sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi, (2023- yil uchun, birlik)




2023- yilda konsert tashkilotlarining faoliyati faoliyat turlari bo'yicha

	Konsertlar soni, <i>birlik</i>	Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni, <i>ming kishi</i>
filarmoniya	800	74,1
gastrol-konsert	347	468,0
mustaqil jamoalar	6	23,0
konsert zallari, san'at saroylari	289	558,7

O'zbekiston Respublikasida sirk faqatgina Toshkent shahrida o'z faoliyatini olib boradi. 2023- yilda sirkdagi namoyishlar soni **137**tani tashkil etgan. Namoyishlarda ishtirok etgan tomoshabinlar soni esa **28,0** ming kishini tashkil etgan. Shtatdagi artist xodimlar soni jami **174** nafarga teng bo'lib, umumiy soniga nisbatan artist ayollar ulushi (**80** nafar) **46,0%** ni tashkil etdi.

2023- yilda sirk faoliyati



TOSHKENT SHAHRIDA BOTANIKA VA HAYVONOT VA ISTIROHAT BOG‘LARI

Toshkent shahrida jami 1 ta hayvonot bog‘i mavjud bo‘lib, u o‘z faoliyatlarini Toshkent shahrida olib bormoqda. Shu bilan birga, shahar hayvonot bog‘iga **912,5** ming kishi tashrif buyurgan, shundan **365,2** ming nafari bolalardir.

Shahrimiz hayvonot bog‘idagi o‘simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi o‘ziga xosligi bilan tashrif buyuruvchilar e‘tiborini tortadi. Bu yerda, xususan, hayvonot dunyosi **343** ta turi, o‘simlik dunyosining **7** ta turi mavjud. Hayvonot dunyosi namunalari umumiy soni **16 485** tani va o‘simlik dunyosi namunalari **7** nusxani tashkil etadi.

Toshkent shahridagi hayvonot bog‘ining umumiy maydoni 25 gektarni tashkil qiladi.


2023- yilda hayvonot bog‘larning faoliyati (birlik)



Toshkent shahar hayvonot bog‘i

343 hayvonot dunyosi namunalari,
7 o‘simlik dunyosi namunalari


Hayvonot bog'larining hayvonot dunyosi (2023- yil uchun, turlar)



Toshkent shahrida 1 ta botanika bog'i mavjud. Undagi botanika bog'ining asosiy qismi Shimoliy Amerika, Yevropa, Qrim, Kavkaz, Uzoq Sharq, Sharqiy va Markaziy Osiyo dendroflorasiga bo'lingan.

2023- yilda botanika bog'iga **278,2** ming kishi tashrif buyurgan, shundan **20,0%** (**55,6** ming kishi) bolalardir. Bog'dagi ekskursiyalar soni 2023- yilda **380** tani tashkil etdi, shundan **327** tasi maktab o'quvchilari uchun o'tkazildi.


Botanika bog'lariga jami qatnovlar, (tegishli yil uchun, ming kishi)



TOSHKENT SHAHRIDA MADANIYAT VA DAM OLIISH ISTIROHAT BOG‘LARI

2023- yilda shahrimizda **23** ta madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud bo‘lib, ularning shahar tumanlari bo‘yicha taqsimlanishi eng ko‘p Yunusobod, Mirzo Ulug‘bek va Olmazor tumanlarida **3** tadan madaniyat va istirohat bog‘lari mavjudligini ko‘rsatdi. Yakkasaroy, Yashnobod va Chilonzor tumanlariga **1** tadan to‘g‘ri keladi .

Madaniyat va dam olish istirohat bog‘lari 2023- yil uchun, birlik



madaniyat va dam
olish istirohat bog‘lari

attraksionlar

istirohat bog‘lari umumiy
maydoni, ga

222,7

qatnovlar, ming kishi

5 422,5

Statistik ko‘rsatkichlarga izoh

Madaniyat — inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san’at, me’morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Madaniy meros bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e’tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me’yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



Toshkent shahar statistika boshqarmas



**Manzil: 100000, Toshkent sh.,
Amir Temur ko'chasi, 11-uy**

tel.: +99871 203-88-27



e-mail: ijtimoiy_soha@toshstat.uz



www.toshstat.uz



[facebook.com/Toshkent shahar statistika boshqarmasi](https://facebook.com/Toshkent-shahar-statistika-boshqarmasi)

